

ZARDUSHTIYLIK E'TIQODI HAQIDA

Maxamadjonov Sardorbek Sherali o'g'li

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annonatsiya. Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi, tuzilishi, xudolari tarqalishi va hozirgi davrdagi ahamiyati.

Kalit so'zlar. Zardusht, Axuramazda, Majusiylik, Avesto, Arshakiylar, Hozirgi davrda.

Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi. Zardushtiylik dini qachon, qayerda paydo bolgan? Bu din miloddan avvalgi 1-mingyillikning 1-yarmida O'rta Osiyo hududida paydo bo'lgan. Zardushtiylikning asoschisi Zardusht hisoblanadi. U tahminan miloddan avvalgi VII-VI asrlarda yashagan bo'lishi mumkin. Zardushtning tug'ilgan va ilk o'z diniy faoliyatini boshlagan hududi tog'risida ikki xil qarash mavjud, yani "G'arb" va "Sharq" ko'rinishlari bor. Undan g'arb teoriyasi Zardushtning vatani va uning talimoti tarqalgan hudud hozirgi Eron Respublikasi deb bilishadi. Ikkinchi yani sharq teoriyasida esa Zardushtning vatani yurtimizdagi qadimiy viloyat Xorazm hisoblanadi va ko'pchilik olimlar shu qarash tarafdorlaridir. Uni otasining ismi Porushasp, onasining ismi esa Dug'dova bo'lgan. Zardusht so'zining manosi "tuyalarning sohibi" manosini anglatadi. Qadimgi pahlaviy tilida Magupta dep atalgan. Anashu pahlaviy tilidagi turli xil yodgorliklarni arab tiliga tarjima qilgan olimlar bu Magupta so'zini "majus" shaklida qo'llashgan. Buning natijasida Zardusht "majus" bo'lib, Zardushtiylik esa "majusiylik" sifatida tanilgan. Kitoblarda keltirilishicha Zardusht erta tongda daryodan suv olish uchun borganida qirg'oqda xudo Axuramazdaning elchi bo'lmish "Voxumana"ni ko'rib qoladi va uning nuriga ergashadi. U ezgu va ulug' hisoblanmish xudo Axuramazdaning oldiga olib boradi. Shunda xudo Axuramazda o'zini butun dunyo borliqni yaratganligini va oliy xudo ekanligini, bu habarni odamlarga yetkazish uchun Zardushtni payg'ambar sifatida tanlab olganini bayon qiladi. Shu kundan boshlab

payg'ambarga aylangan Zardusht o'z qavmi orasida xudo Axuramazdaning dinini targ'ib eta boshlaydi. Zardusht bu paytda 40 yoshda edi. Bu dinning asosiy talimotini yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va ezgulik, xayot va o'lim o'rtasidagi kurashgan qarama qarshiliklar tashkil etadi. Zardushtiylikda iymon tushunchasi uchta so'zdan iborat, yani tub manosi ezgu fikr, ezgu so'z va albatta ezgu amaldir. Yana o'sha davrda keng tarqalgan ko'chmanchilik qattiq qoralanib, dexqonchilik ezgulik sifatida rag'batlangan. Bu dinda olov, suv, tuproq va havo ham muqaddas hisoblanib e'tiqodining asosini tashkil qiladi. Har bir zardushtiy inson bir kunda 5 maxal yuvinib poklanib Quyoshga qarab turli ibodatlar qilib olqishlab unga sig'inishgan. Zardushtiylikning ko'lab xudolari bo'lib, ularning turli vazifalari bo'lgan. Bosh xudo Axuramazda bo'lib olamning yaratuvchisi hisoblanadi. Yana quyidagicha xudolari bolgan;

Vohu Manax- chorva mollari va ezgulik xudosi

Asha Vahista – olov va yuksak haqiqat xudosi

Mitra – quyosh xudosi

Xarvtat – salomatlik xudosi

Xshatra vayra – hokimyat va qudrat xudosi

Axriman – yovuzlik xudosi

Ameretat – o'simlik va mangulik xudosi

Anahita – hosildorlik va suv ilohasi

Yana shular kabi bir qancha xudolar bo'lgan. Bu xudolarning barchasini oliy xudo Axuramazda muqaddas ruh yordamida yaratgan bo'lib ular ham xuddi Axuramazda kabi abadiydirlar.

Muqaddas kitobi “Avesto” haqida. Zardushtiylik dini haqida asosiy manba bu muqaddas hisoblangan Avesto kitobidir. Avestoning dastlabki qismlari miloddan avvalgi IX – VIII asrlarda paydo bo'la boshlagan. Axamoniylar shohi Doro I davrida Avesto 12 ming qoramol terisiga tilla suvi bilan yozilgan. Xattoki Axamoniylar davlatida davlat dini sifatida ko'tarilgan. Makadoniyalik Aleksandr yurishlari davrida uning ko'plab nusxalari yoqib yuborilgan. Dastlab bu 30 kitobdan iborat bo'lgan va keyinchalik esa miloddan avvalgi III asrda Arshakiylar davrida 21 ta kitobga

jamlangan. U oromiy va pahlaviy tillari asosida yaratilgan maxsus alifboda to'qqizta ho'kiz terisiga yozilgan. Lekin bizgacha uning faqat 4 ta qismi yetib kelgan. Bular:

- Yasna – Zardusht hatlari va 72 ta boshorotlardan iborat bo'lib asosan diniy marosimlar haqida
- Yasht – Axuramazdaning yovuz kuchlarga qarshi kurashi haqida 22 ta qo'shiqdan iborat
- Visparad – bu 24 bobdan iborat bo'lib pand nasihatlar va ilohlar hayoti haqida
- Vendidad – Yovuz kuchlarga qarshi qonunlar to'plamidan iborat.

Avestoda O'rta Osiyo aholisi turmush tarzi haqida ko'plab malumotlar keltirilgan. Masalan oila to'g'risida. Zardushtiylarda nikoh bir umrga yashashga qurilgan. Bir erkakka ikki nikoh xarom qilingan. Er va xotinning bir birlariga xiyonati o'ta lanatlangan. Oila qurishda ota-onaning maslahatiga quloq solishgan. Avestoda O'rta Osiyoning aholisi 4 guruhga bo'lingan.

4. Nmana – kichik bir oila jamoasi
5. Vis – ota boshliq patriarxal urug' jamoasi
6. Zantu – patriarxal jamoalardan iborat qabilalar jamoasi
7. Dahyu – Qabilalar ittifoqi

Bundan tashqari Avestoda qadimgi jamiyatda mavjud bo'lgan 4 ta asosiy ijtimoiy tabaqala quyidagicha berilgan:

1. Kohinlar – yani Ruhoniylar
2. Askarlar
3. Hnarmandlar
4. Chorvadorlar

Avestoda keltirilishicha Zardusht qavmidagi odamlarga shunday murojat qiladi “Mening pand nasihatlarimga quloq soling va xotirangizga saqlab oling. Halollik bilan kun kechiring va shijoatli bo'lin. O'zgalarning maslahatlariga quloq tuting va

andisha bilan qarang, yaxshi bilan yomonni farqlashga e'tibor bering. Toki hayotingiz pok va xiradmand yor bilan o'tadigan bo'lsin”.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov aytganlaridek “ “Avesto” ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki uni hechkim inkor eta olmaydi”.

Zardushtiylik dini hozirda davrda. Zardushtiylik dini haqida ingliz olimi D. Buer va fransiyalik olim A. Dyupperron qimmatli malumotlarni toplashgan. Hatto Dyupperron 1755- yilda Hindistondagi zardushtiyalar bilan 3 yil yashagan va ibodatlari, urf-odatlarini o'rganib Avestoni fransuz tiliga tarjima qilgan. Avestoga sharh “zand” deb ataladi. Zardushtiylik dini hozirda ham saqlanib qolgan bo'lib, unga e'tiqod qiluvchi diniy jamoalar ham mavjuddir. Ular Hindistonning Mumbay shahri va Bombay, Gujarot shtatlarida 115 ming kishiga yaqin. Bundan tashqari Shri Lanka, Pokiston, Eronning (poytaxti Tehron shahrida 19 ming kishidan ortiq) ba'zi chekka viloyatlarida va hattoki Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va AQSH davlatlarida saqlanib qolgan. Zardushtiylikka e'tiqod qilish Eron Islom Respublikasida qonun bilan belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari Hindiston, AQSH, Eron va Rossiya davlatlarida zardushtiylikni o'rganish maqsadida avestoshunoslik markazlari ochilib faoliyat ko'rsatmoqda. Yurtimizda ham Avestoga e'tibor berilib Urganch shahrida yodgorlik bunyod etiladi. 2001 – yil xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan keng miqyosda Avestoning 2700 yilligi nishonlanadi. Mashhur Rossiyalik dinshunos olim Sergey Fyodorovich Oldenburg aytganlaridek: ”Zardushtiylik o'z davrida insonning yer yuzida farovon yashashiga katta ahamiyat bergan eng oqilona dindir”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Jurayev Y. Saidjonov. Dunyo dinlari tarixi. Toshkent 2011.
2. A. Narbekov. Dinshunoslik asoslari . Toshkent 2007.
3. Fridrix Nitshe. Zardusht tavollosi. Toshkent. Yangi asr avlodi 2007.
4. Q. Usmonov. M. Sodiqov. S. Burxonova. O'zbekiston tarixi. Toshkent 2006.
5. S. Sadullayev. TDSHI. Avesto. Annonatsiya.
6. Elib.buxdu.uz